

---

## SHIRIN QOVUNLAR QISHLOG'I

Toshloq tumanidagi "Besarang" mahalla fuqarolar yig'inida ertangi qovun pishdi.

Ichki va tashqi bozorda xaridorgir bo'lgan "Doro-f" qovun navlari ertapisharligi, shirin ta'mi bilan ajralib turadi.

Besaranglik dehqonlar ertangi qovun navlari yetishtirish borasida o'ziga xos tajribaga ega. Ixtiyorjon Qamchiyev intensiv usulda mahsulot parvarishlash, yangi qovun navlarini mahalliyashtirish borasida o'ziga xos tajribaga ega. Plyonka ostiga ekilgan qovun ko'chatlari 60 kunda hosilga kiradi. Samarali usulning o'ziga xosligi, ko'chatlar tez rivojlanadi, namlikni uzoq saqlash xususiyatiga ega. Bundan tashqari, suv sarfi, oziqlantirish bilan bog'liq ortiqcha xarajatlarni tejash imkoniyatini beradi.

"Besarang" mahalla fuqarolar yig'inidagi 40 gektar aholi tomorqa ekin maydonlarida ertangi qovun navlari yetishtirildi. Mahalla fuqarolar yig'ini raisi Dilmurod Qosimovning hisob-kitoblariga ko'ra, joriy mavsumda tashqi bozorga 350-400 tonnadan ortiq mahsulotlar turlari eksport qilinadi. Bu yerda, tayyor mahsulotlarni sotishga ixtisoslashgan ulgurji bozor faoliyati ham yo'lga qo'yilgan.

2024-05-29 10:17:05